

Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириш



ISSN 2181-7138

№ 6/2 - 2022 жыл

Илимий-методикалық журнал

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Кеңесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ
Тўлқин АЛЛАЁРОВ
Умида БАҲАДИРОВА
Фархад БАБАШЕВ
Аскар ДЖУМАШЕВ
Гўлнара ЖУМАШЕВА
Мырзамурат ЖУМАМУРАТОВ
Аскарбай НИЯЗОВ
Сабит НУРЖАНОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Бахтиёр РАХИМОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Барлықбай ПРЕНОВ
Қахқор ТУРСУНОВ
Тажибай УТЕБАЕВ
Саодат ТОШТЕМИРОВА
Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Ризамат ШОДИЕВ
Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Гулрухсор ЭРГАШЕВА

Шўлкемлестиришчилер:

Қарақалпақстан Республикасы
Халық билимлендириш
Министрлиги, ӨЗПНИИ
Қарақалпақстан филиалы

Өзбекстан Республикасы
Министрлер Кабинети
жанындағы Жоқарғы
Аттестация Комиссиясы
Президиумының 25.10.2007
жыл (№138) қарары менен
дизимге алынды

Қарақалпақстан Баспа сөз хэм
хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге
алынды №01-044-санлы гуўалық
берилген.

Мэнзил: Нөкис қаласы,
Ерназар Алакөз көшеси №54
Тел.: 224-23-00
e-mail: uzniipnkkf@umail.uz,
mugallim-pednauk@umail.uz
www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

Журналға келген мақалаларға жуўап қайтарылмайды, журналда жарияланған мақалалардан алынған узиндилер «Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириш» журналынан алынды, деп көрсетилуўи шарт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледи. Мақалада келтирилген мағлўматларға автор жуўапкер.

МАЗМУНЫ

ТИЛ ҲАМ АДЕБИЯТ

Umarov I.A. “Малика айёр” дostonи лексикасида туркий қатламнинг қўлланиши	4
Шодиева Ш.И. Оламнинг лисоний манзараси ҳақида қарашлар	9
Haydarova Z. Satira nazariyasi haqida mulohazalar	14
Mamaraximova N. Ijodiy tafakkurda nutqning ahamiyati	16
Ergashev A. Xurshid Do’smuhammadning ramzga asoslangan hikoyalari o’qitish metodlari	21

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Yalubjanova D.,Maxmudov F. Diagnostikasi va reabilitatsiya qilishda eshitishida nuqsoni bo’lgan bola va ulaming ota – onalari bilan bog’liq muammolar	25
Musurmonov R., Musurmonova M. Yangi o’zbekiston sharoitida ta’lim muassasasi rahbarining innovatsion faoliyati xususiyatlari	29
Мусурмонов Р., Султонова Д. Замонавий таълим муассасаси раҳбарининг инновацион фаолияти хусусиятлари	33
Мусурмонов Р., Суяров А. Таълим муассасалари раҳбарларининг маънавий кифаси, маданияти ва унга қўйилган талаблар хусусида	37
Мусурмонов Р., Хақимова И. Ёшларнинг шарқона имиджи ва муомала одобини шакллантириш хусусида	43
Турсунбаева Ю. Р. Олий таълим сифатини таъминлаш ва самарадорлигини оширишнинг замонавий имкониятлари	47
Расулов А. Н., Хуррамов К.М. Таълим кластери шароитида “Иктисодий билим асослари” фанини ўқитишнинг ташкилий шароитлари	50
Эватов С. Коммуникатив компетентлик тушунчасининг мазмун-моҳияти ва илмий-педагогик асослари	55
Азамов Ж. Олий таълим муассасалари бошқарувида Осийча субстансиал ва процессуал автономия тамойилларини жорий этиш самарадорлиги	59
Ziyayev A. Seminar mashg’ulotlarini interfaol nashkil etishning afzallik jihatlari	63
Arifxodjayev G., Yuldasheva O. Dizartiya nutq nuqsoni bo’lgan bolalarda idrok shakllanishining o’ziga xosligi	66
To’raqulov L. Oilaviy bolalar uylari tarbiyalanuvchilarining ijtimoiylashuvi	70
Тошболтаев Ф. Бўлажак ўқитувчиларни методик тайёрлаш тизимини такомиллаштиришнинг хусусиятлари	75
Akramova X., Safarov M. Yordamchi maktabda ta’lim jarayonini rivojlantirishni o’ziga xosligi	79
Nazarqosimov Q., Qarshiboyev A. Ko’rishida nuqsoni bo’lgan bolalarda tarbiyaviy ishlarni olib borishda didaktik materiallarni qo’llanilish bo’yicha mashg’ulotlarning ahamiyati	83
Мустафақулова Д. Таълимда тизимли ёндашув	86
Mixliboyev F. Nutqning normal va nuqsonli rivojlanishida nutq va kognitiv funksiyalarning o’zaro bog’liqligi	91

Qaxharova N. N. Bolalarda mantiqiy fikrlashni shakllantirishning tarixiy falsafiy asoslari	94
Abdullayeva G. R. Adekvatlik tushunchasining psixologik tahlili	98

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУЎХИЙЛИҚ ТИЙКАРЛАРИ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Rasulova D. O'qituvchi va o'quvchi munosabatlarining axloqiy mezonlari	104
Qilichova M. Yoshlar siyosiy qiyofasi to'g'risidagi qarashlarning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati	106
Абдурасулова Д. Ёшлар ўртасида соғлом турмуш тарзининг амалда тадбиқ этилиши (Жиззах шаҳри мисолида)	112
Nazarqosimov Q., Berdiyev X. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda va korreksiyalashda logopedik yondoshuvlar	115
Raimjonov S. Yakka tartibdagi darslarda o'quvchilarning ijrochilik mahoratini rivojlantirish	117
Xolmirzayev O. O'zbek xalq cholg'usi chang tarixidan	121
Abdukurimova E. O'zbekistonda mumtoz musiqa san'atida bastakorlik ijodining tutgan o'mi va uning tadrijiy rivojlanishi	124

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Tayirova M. Ta'lim jarayonlarida samarali tashkil qilishda ta'lim vositalari va multimedia texnologiyasidan foydalanishning dolzarbligi	130
Назарова Г. Бўлажак иктисодчиларда аналитик тафаккурни ривожлантиришнинг педагогик мазмуни	135

БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТАРБИЯ

Akramova X., Abatbayeva A. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar o'yin faoliyatida nutqiy muloqotning faolligini oshirish xususiyatlari	138
Arifxodjayev G., Muminova Z. Boshlang'ich sinflarda disleksiyasi bo'lgan o'quvchilarning o'qish malakalarini korreksiyalash	141
Xudoyqulov J. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish	145
Абдуллаева Н. Мактабгача таълим ташкилотлари ва олий таълим муассасалари ҳамкорлигини кластери ёндашув асосида ривожлантириш	149
Сафаров Б. Мактабгача таълим ташкилотлари тарбиячиларда педагогик касбий компетентлик ва унга хос сифатлар	153

ФИЗИКАЛЫҚ ТАРБИЯ ҲАМ СПОРТ

Пармонов А. Жисмоний тарбия ўқитувчиларида акмеологик мотивацияни ривожлантириш модели	157
Абдуллаев О. Ўқувчилар руҳиятидаги салбий ўзгаришлар ва уни жисмоний таълимда бартараф этиш вазифалари	161
Nurmatov F.A. Milliy harakatli o'yinlar va uning rivojlanishi	165
Каримов У.Р. Решение некоторых ошибок и недостатков в физическом воспитании и в спорте вузов и всех образовательных учреждениях	168

ности ребёнка психологического родительского попечительства. Дети с отклоняюмся поведением. /Под ред. В.С.Мухиной.–Москва.:1989. - С.38-43.

РЕЗЮМЕ

Мақолада ўқувчилар руҳиятидаги салбий ўзгаришлар ва уни жисмоний таълимда бартараф этиш вази-фалари ҳақида сўз боради. Мақола мавзусини ёритиш мақсадида хорижий ва маҳаллий олимларнинг илмий ишланмаларидан фойдаланилган.

РЕЗЮМЕ

В статье рассказывается о негативных изменениях в психике студентов и задачах по их устранению в физическом воспитании. Для освещения темы статьи были использованы научные разработки зарубежных и отечественных ученых.

SUMMARY

The article talks about negative changes in the psyche of students and the tasks of eliminating it in physical education. Scientific developments of foreign and domestic scientists were used to cover the topic of the article.

MILLIY HARAKATLI O'YINLAR VA UNING RIVOJLANISHI

Nurmatov F.A.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Jismoniy madaniyat nazaryasi kafedrası mudiri

Tayanch so'zlar: milliy harakatli o'yinlar, buyumlar, ashyolar, hayot, murakkab, hikmat, xalq, jismoniy tarbiya, sport.

Ключевые слова: народно-подвижные игры, предметы, быт, комплекс, мудрость, фольклор, физическая культура, спорт.

Key words: folk outdoor games, objects, life, complex, wisdom, folklore, physical culture, sports.

O'zbek xalq milliy harakatli o'yinlarining kelib chiqish tarixi uzoq o'tmishimiz bilan bog'lanib ketadi. Afrosiyob, Sirdaryoning quyi qismlarida (Toshkent viloyati), shuningdek, Xorazm va Qoraqalpog'iston hududlarida o'tkazilgan arxeologik qazilmalar, qidiruv ishlarining natijalari asosida topilgan turli xil buyumlar, ashyolar, bezaklar o'sha hududlarda topilgan. Guvohlik berishicha, bundan 3-4 ming yillar avval ajdodlarimiz xilma-xil o'yinlar, jismoniy mashqlar bilan mashg'ul bo'lishgan. Yovvoyi hayvonlarni tutish, ov qilish, quvlash, nayza sanchish, ular bilan olishish kabi yana ko'plab murakkab harakatli faoliyatlar tasvirlarda, sopol va metall buyumlarda ifoda etilgan. Shuningdek, Chorvoq atrofidagi (Toshkent viloyati) yassi toshlar, g'orlarda odamlarning ov qilish va hayvonlar bilan jang qilish (olishish), turli o'yinlar bilan shug'ullanishlari aks ettirilgan. Bunday holatlar Surxon va Qashqa vohasidagi g'orlar, sohillardagi toshlar, Farg'ona vodiysidagi tog'li manzillar (Chotqol tog'lari)da ham ko'p uchraydi. Qadimgi ajdodlarimiz hozirgi Markaziy Osiyo hududlaridagi barcha xalqlar (qozoq, qirg'iz, turkman, tojik, uyg'ur va boshqa.) bilan yaqin aloqadorlikda hayot kechirganlar. Ularning ijtimoiy turmush madaniyati, urf-odatlari, turli marosimlari bir-biriga juda o'xshash bolgan. Shu sababdan ham milliy harakatli o'yinlar o'zaro aralashib ketgan. Masalan, kopkari-uloq, poyga, qiz quvmoq, otdan ag'darish, otda qilichlashish (savallash), nayza sanchish, dor o'ynash, kurash kabi murakkab hikmatli o'yinlar Markaziy Osiyoning barcha hududlarida keng tarqalgan. Ijtimoiy-madaniy turmush sharoitidan kelib chiqqan «Quloq cho'zma», «Eshak mindi», «Oq suyak», «Chillik» («Chillik»). «Qulpoq tepish», «Piyodapoyga», «Poda to'p», palaxmon va kamondan (yoy) nayza (o'q) otish, «Xo'rozlar jangi. «Mushuk va sichqon», «Bo'ta soldi», «To'qqiz tosh», «Shuvoq, «Bekinnachoq» kabi yuzlab milliy harakatli o'yinlar ham xalqlar, elatlar, urug'-aymoqlar hayotida chuqur o'rin egallagan. «Alpomish», «Go'r o'g'li», «Kun tug'mush», «Qirg' qiz, «Tohir va Zuhra» kabi xalq og'zaki ijodi durdonalarida tilga oligan

ko'plab o'yinlar ham, avvalo, og'izdan og'izga o'tib bizgacha yetib kelgan. Shuningdek, o'g'il uylantirish, qiz chiqarish, beshik, payg'ambar yoshi kabi to'ylar, Navro'z, Hosil yig'ish bayramlari (qovun sayili, gul sayili va h.k.), hayitlar, gashtaklar va juda ko'p marosimlar xalqlardan xalqlarqa o'tib kelgan. Ularning Ko'pkari-uloq, poyga, otdan ag'darish, qiz quvmoq, kurash kabi o'yinlar qatori «Piyoda poyga», «Quloq cho'zma», Xo'rozlar jangi», «To'qqiz tosh» (qizlar o'yini), «Gardkam» (oshiq o'yinlari) kabi xilma-xil qiziqarli o'yinlar yuqorida sanab o'tilgan marosimlarning tarkibidan o'rin olgan. O'zbek xalq milliy o'yinlarining mazmunini yozib olish, ularni yoshlarga o'rgatish masalalari bilan shug'ullanishga kirishish asosan XIX asming ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Xalq milliy o'yinlariga oid ma'lumotlarni L.Bajenko (1840), A.Borj (1848), G.Vamper (1877), A.Arandarenko (1889) kabi rus sayyohlari va arxeolog olimlarining asarlarida uchratamiz. XX asr boshlarida arxeologik va tarix sohasidagi olimlar V.Bartold, A.Vinogradov, S.P.Tolstov, A.Shishkin hamda Y a.G 'ulomov kabi arxeolog, tarixchi olimlar milliy harakatli o'yinlarga katta e'tibor berishgan. Sobiq sho'ro hokimiyati yillarida ham (1917—1991) harakatli o'yinlarga oid bir qator to'plamlar nashr etilgan. Ulardan asosan o'quv yurtlarida o'quv qo'llanmalari sifatida foydalanilgan. Ularning tarkibida o'zbek xalq milliy harakatli o'yinlari umuman uchramaydi. T.S.Usmonxo'jayev va H.Tojiboyevlar rus tilidagi harakatli o'yinlarga oid matnlarini tarjima qilib, ular mazmunini milliy harakatli o'yinlar bilan to'ldiiganlar va ilk bor (1963) nashr ettirganlar. Mustaqillik yillarida «Harakatli o'yinlar» to'plamlarini qayta nashr qilish, ularni yangi o'yinlar bilan boyitishga T.S. Usmonxo'jayev, A.Sh.Qosimov, F.N.Nasriddinov, O.O.Po'latov, F.Xo'jayev, f I.Meliyev kabilar o'z hissalarini qo'shdilar. O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti (O'zDJTSU) va respublikamizdagi boshqa jismoniy tarbiya oliy o'quv yurtlarida «Harakatli o'yinlar» maxsus fan sifatida o'qitiladi. Mustaqillik sharofati bilan jismoniy tarbiya fakultetlarida «Milliy harakatli o'yinlar» fani yangidan o'rganila boshlandi. Ushbu fanni o'qitishdan maqsad jismoniy tarbiya va sport sohasidagi bo'lajak mutaxassislarning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalari hamda malakalarini chuqurlashtirishdir. Shu sababdan harakatli o'yinlardan deyarli barcha sport turlari bo'yicha o'tkaziladigan darslar va sport mashg'ulotlari (trenirovkalar)da maqsadli foydalanish yo'lga qo'yilgan. Bu o'z navbatida milliy harakatli o'yinlarga e'tibori yanada oshirishga ko'mak beradi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi (1997), «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi (2000, yangi tahrir) qonunlariga rioya qilish hamda O'zbekiston Respublikasining davlat ta'lim standartlari, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, sog'lom avlod davlat dasturini amalda bajarishda «Milliy harakatli o'yinlar» fani asosiga yangi vazifalar mujassamlashadi. Ularni quyidagi yo'nalishlarda ijro etish maqsadga muvofiq bo'ladi, ya'ni: 1.Milliy harakatli o'yinlarni shug'ullanuvchilarning yoshiga qarab belgilash va turkumlarga ajratish (jismoniy sifatlarni tarbiyalovchi). 2.Maktabgacha ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan harakatli o'yinlarning tartib va tizimlarini qo'llash. 3. Boshlang'ich (I—IV) va yuqori sinflar (V—VII, VIII—IX), kollej va litseylarda o'tiladigan harakatli o'yinlarning ijtimoiy tarbiyaviy xususiyatlariga e'tibori kuchaytirish. 4. Aholi istiqomat qiladigan joylar, istirohat bog'lari, o'quvchi yoshlar va talabalarining yozgi dam olish oromgohlari, sog'lomlashtirish sport markazlarida tashkil etiladigan harakatli o'yinlarni sharoitlarga qarab belgilash va h.k. Talabalarga milliy harakatli o'yinlarning ijtimoiy-madaniy, tarbiyaviy, sog'lomlashtirish xususiyatlarini, shuningdek, mehnat va Vatanga sadoqat tuyg'ularini his etishdagi ijtimoiy-pedagogik jarayonlarni mukammal, chuqur singdirish davr talabidir.

Harakatli o'yinlarning kelib chiqishi va rivojlanish tarixi Harakatli o'yinlar inson faoliyatini ta'minlovchi mazmunga egadir. Buni eng qadimgi ajdodlarimiz ham yaxshi bilishgan va kundalik turmushlarida ular bilan shug'ullanishga amal qilishgan. Kurash, ot

o'yinlari bilan shug'ullanishdan tashqari, kamondan o'q otib, nayza sanchib, kaltak, tosh va boshqa moslamalarni uloqtirib yovvoyi hayvonlarga ov qilishgan. Ijtimoiy tuzumlar almashishi va rivojlanishi tufayli turmush sharoiti ham o'zgargan, rivoj topgan. Mehnat qilish, oilada bolalarni tarbiyalash, ov qilish, dushmanlarga qarshi jang qilishga kirishish va boshqa juda ko'p sabablarga ko'ra harakatli o'yinlar, turli jismoniy mashqlardan maqsadli va keng foydalanilgan. Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyatning ibtidoiy jamoa davrida paydo bo'lishi haqidagi N.I.Ponomarevning monografiyasida (Leningrad, 1972) ta'kidlanishicha, qadimgi kishilar yashash, mehnat qilish uchun tabiat bilan ro'baro' kelishgan. Osiyo va Yevropa qit'alarida yashagan odamlar asosan ov bilan shug'ullanuvchilar, buning natijasida turli xil harakatli o'yinlari kashf etganlar. Kunda hayvonlarning xatti-harakatlari, tabiatdagi turli o'zgarishlarga qiyos qilingan. Yovvoyi-yirtqich hayvonlardan saqlanish, ov qilish jarayonlarida ephilik, kuchlilik, chidamlilik kabi jismoniy sifatlar lozimligini tushungan qabila, urug' boshliqlari yordamida bolalarni tayyorlashga katta ahamiyat berilganlar. Bunda jismonan baquvvat, ephilik qabila vakillarini tarbiyachilikka o'rgatib, o'z navbatida» ulardan bolalarni tarbiyalashda foydalanilganlar. Quldorchilik tuzumi davrida mayda hunarmandchilik, keyinchalik ishlab chiqarish rivojlangan. Natijada metall buyumlardan qilich, nayza, pichoq, bolta, o'roq kabi jang va mehnat qurollari yasalgan. Ulardan turli marosimlarda o'yin element sifatida foydalanilganlar. Qadimda urushlar ko'p bo'lganligi sababli, harbiy qurollarni yasash oldingi o'rinlarda turgan. Askarlar mohirona jang qilishlari uchun har tomonlama, jismoniy jihatdan puxta tayyorlantirilgan. Jang mashqlarining ba'zi qismlari (element) o'yinlarga aylanib, keyinchalik xalq orasida keng tarqalgan. Masalan, Yunoniston va Italiyada jang amallari, eng murakkab mashqlar omma o'rtasida tomosha sifatida namoyish etilgan («Spartak», «Geraklarning jasorati» kabi o'xshash kinofilmlarni eslab ko'ring). Feodalizm jamiyati davrida boy feodallar va dehqonlarning yumushlari asosida turli xil yangi o'yinlar vujudga kelgan. Qilichbozlik, nayza uloqtirish, kamondan o'q otish kabi o'yin turlari bilan bir qatorda mushtlashish (boks), kurash, tosh ko'tarish, suvda suzish kabi o'yinlar bilan ham mashg'ul bo'lganlar. O'rta asr va keyingi shakliga yuz yilliklar davrida yuqorida tilga olingan murakkab harakatli o'yinlar musobaqa shakliga o'tib, kuch va matonatni sinash, jang qilish quroliga aylangan. E'tirof etish lozimki, har bir xalqning o'z milliy o'yinlari va ularni tashkil qilish marosimlari mavjud bo'lgan.

Arab mamlakatlarida, asosan, o'tda poyga, o'tni sakratish, chavgon o'yinlari milliy o'yinlar hisoblangan bo'lsa, Hindistonda esa fillar va ilonlarni tutish, ularni o'yinga o'rgatish hamda chim ustida xokkey o'ynash milliy o'yinlar hisoblangan. Afrika mamlakatlarida yo'lbars va boshqa yirtqich hayvonlarni ushlash, ularni qo'lga o'rgatish, nayza, kamondan o'q otish kabi turlar eng qadimgi davrlardan beri davom etib kelayotgan o'yinlardir. Xitoy, Yaponiya, Koreya, Tayvan kabi sharq mamlakatlari aholisi ushbu, taekvando, karate, kungfu kabi yakka kurash turlari bilan uzoq davrlardan beri shug'ullanib kelishadi. Kavkaz xalqlarida kurash, ot o'yinlari, chexarda va boshqa o'yinlar mashhur hisoblanadi. Rossiya xalqlari yashash hududlariga qarab (shimol, sharq va janub) chang'ida yurish, konkida uchish, mushtlashish (boks), kurash, muzda cho'milish, ot, bug'u, itlarni arava, chanaga qo'shib poygalar uyushtirish kabi milliy o'yinlar tarixi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Eslatish o'tish zarurki, qadimgi o'yinlarning anchasi keyinchalik sport turlariga aylangan. Bularni Yevropada XIX asming birinchi yarmida ilk bor tashkil etilgan musobaqalar misolida ko'rish mumkin. Bu faoliyatlar xalqaro miqyosga aylanib, keyinchalik turli sport federatsiyalarining tuzilishiga sabab bo'lgan. Bular oxiroqibat Yevropa va jahon birinchiliklari hamda Olimpiya o'yinlarining tashkil etilishiga asos bo'lgan. Har bir mamlakatning o'z milliy harakatli o'yinlari mavjud. Ulardan asosan bolalarni jismonan tarbiyalash, bayramlarda hordiq chiqarish, ba'zan esa musobaqa tariqasida foydalaniladi. Ta'kidlash

lozimki, sobiq sho'ro davrida harakatli o'yinlar asosan jismoniy tarbiya darslaridagina keng qo'llanilib kelingan. Shu sababdan maxsus to'plamlar tayyorlanib, ulardan asosan Rossiya va uning atrofidagi mamlakatlarning harakatli o'yinlari o'rin olgan. Shu tariqa ularda tilga olingan deyarli barcha harakatli o'yinlar sobiq ittifoq respublikalarining xalqlari orasida asosiy o'yinlar bo'lib hisoblangan. O'zbekistonda o'qitiq ayotgan jismoniy tarbiya darslarida qo'llaniladigan harakatli o'yinlarning 70-80% xorijiy mamlakatlarning (asosan Rossiya) harakatli o'yinlaridir. Shunday bo'lsada, bu o'yinlarning mazmuni, maqsad va vazifalarining umumxalq ehtiyojiga mos kelishini inkor qilib bo'lmaydi. Ularning asosida barcha jismoniy sifatlarni tayyorlashga loyiq bo'lgan tarbiyaviy jarayonlar mujassamlashgandir. Xulosa qilib aytganda, milliy harakatli o'yinlar barcha xalqlarning ezgu-niyatlari, maqsad va vazifalarini o'zida saqlab kelmoqda. Ulardan maqsadli foydalanish va milliy xususiyatlarga moslashtirish lozimdir.

Adabiyotlar:

1. Abdullayev U. «Xalq O'yinlari, milliy sport turlarini kayta tiklash va axolini jismoniy tarbiyalashda ulardan keng foydalanish usullari» mavzusiga bag'ishlangan jumxuriyat ilmiy-amaliy anjumanining tezislari. 19-20 aprel 1991, 1 kism, b12-15.
2. Azimov I.G. «Jismoniy tarbiyaning yosh fiziologiyasi». T, 1994. 72-73 b.
3. Atayev A.K. Razvitiye byisroty, lovkosti i silы u detey. -Toshkent, «Ukituvchi» 1973. -120 b.
4. Bagen M.M. Obucheniyе dvigatel'nyy deystviyam. M. Fizkul'tura i sport. 1985. -192 b.
5. Belovusova V.V., Reshetin' I.N Pedagogika. Toshkent «Ukituvchi» 1993. b67-68.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada milliy harakatli o'yinlar va uning rivojlanishi haqida qisqacha mazmuni bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлен краткий обзор национальной игры и его развития.

SUMMARY

This article provides a brief overview of the national game and its development.

РЕШЕНИЕ НЕКОТОРЫХ ОШИБОК И НЕДОСТАТКОВ В ФИЗИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ И В СПОРТЕ ВУЗОВ И ВСЕХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Каримов У.Р.

*Ўзбекский национальный университет имени Мирзо Улугбека
доцент факультет таэквондо и спортивная деятельность*

Таянч сўзлар: sport, jismoniy tarbiya, ommaviy sport, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, munosabat, massaj.

Ключевые слова: спорт, физическая культура, массовый спорт, пропаганда ЗОЖ, отношение, массаж.

Key words: sports, physical culture, mass sports, healthy lifestyle promotion, attitude, massage.

Физическая культура и спорт в современном обществе играют, несомненно, важную роль и выполняют множество функций. Это сфера деятельности, направленная в первую очередь на сохранение и укрепление здоровья, а также на развитие психофизических способностей человека посредством двигательной активности, введенной в систему. Кроме того, это часть культуры, включающая систему знаний, умений, ценностей, которые создает и эксплуатирует общество для физического и интеллектуального развития человека. В процессе занятий спортом человек совершенствует физическую форму, двигательная активность способствует ведению здорового образа жизни, физическое воспитание помогает адаптироваться в социуме.